



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK KESH
SHAHRI MISOLIDA

Do'stiyorova Sevinch
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ijtimoiy fanlar fakulteti
tarix yo'nalishi 2-kurs 2.23-guruh
talabasi

Annotatsiya: *Temuriylar davri me'morchiligi Markaziy Osiyoning madaniy va tarixiy merosida alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada Kesh shahri misolida me'morchilikning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Temuriylar saltanati davrida Kesh shahri siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, shaharni obodonlashtirishda Amir Temur va uning vorislarining ulkan hissasi ko'rsatib o'tiladi.*

Аннотация: *Архитектура эпохи Тимуридов занимает особое место в культурно-историческом наследии Центральной Азии. В данной статье анализируются особенности архитектуры на примере города Кеш. В период правления Тимуридов город Кеш сформировался как один из политических, экономических и культурных центров.*

Abstract: *Timurid era architecture occupies a special place in the cultural and historical heritage of Central Asia. This article analyzes the specific features of architecture on the example of the city of Kesh. During the reign of the Timurids, the city of Kesh was formed as one of the political, economic and cultural centers.*

Kalit so'zlar: *darul-mulk, Zafarnoma, oqsaroy, Dorus-Saodat, R.G.Klavixo, Gumbazi Sayidon, Ko'k gumbaz*

Ключевые слова: *Дарул-мульк, Зафарнама, Аксарой, Дорус-Саодат, Р.Г. Клавихо, Гумбазы Сайидон, Кок Гумбаз*

Key words: *Darul-mulk, Zafarnama, Aksaroy, Dorus-Saodat, R.G. Claviho, Gumbazi Sayidon, Kok Gumbaz*

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Markaziy Osiyoda me'morchilikning oltin davri hisoblanadi. Bu davrda bunyod etilgan obidalar xalqning madaniyati, san'atga bo'lgan munosabati va siyosiy qudratini aks ettirgan. Kesh shahri (hozirgi Shahrisabz) bu davrda Amir Temurning alohida e'tibori tufayli me'moriy rivojlanishning markazlaridan biriga aylangan. Shahrisabzda barpo etilgan binolar nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham me'moriy mo'jizalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maqola Temuriylar davridagi me'morchilikni o'rganib, Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri obidalarining tarixiy ahamiyati va ularning zamonaviy madaniy merosdagi o'rnini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Amir Temur davrida Markaziy Osiyoda Samarkanddan keyin ikkinchi o'rindagi yirik ma'muriy markaz Kesh shahri bo'lgan. Zero o'sha davrdagi manbalarda Samarkand – dor



us-saltana (saltanat poytaxti), Kesh – dorul-mulk (mulk markazi] sifatida qayd etilgan. Xofizi Abru “Zubdat at-tavorix” asarida keltirishicha, bu joy ilgari xukmdorlar tomonidan Sohibqironning ajdodlariga ajratilgan,[1] keyinroq esa, Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da yozishicha, shu asosda Tugʻluk Temurxon farmoni bilan Shaxrisabz va unga yondosh xududlar to Jayxun (Amudaryo] gacha Amir Temurga mulk qilib berilgan.[2] Amir Temur Samarkanddan keyin Ona yurti Keshda katta bunyodkorlik ishlari olib bordi. Temuriylar davri meʼmorchiligini binolar turi jihatidan koʻrib chiqadigan boʻlsak, turarjoy imoratlaridan boshlamogʻimiz lozim. Garchi oʻrta asr davri uylaridan birortasining namunasi qoldiqlari ham bizgacha tab kelmagan boʻlsada, oʻrta asr qoʻlyozmalariga ishlangan moʻjaz rasmlar (miniatyura), arxeologiya obidalar hamda tarixiy manbalardagi shu haqida keltirilgan qaydlar asosida maʼlum bir fikrlarni aytib oʻtish mumkin. Arxeologiya tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki bu davr turarjoylari ilk oʻrta (V—VIII) asrlardan farqli oʻlaroq hovlili qilib qurilgan. Qurilish materiallari sifatida paxsa, xom gʻisht va sinch ishlatilgan. Pishiq gʻishtlar koʻpincha poydevorlar va hovli yuzasiga ishlatilgan. Moʻjaz rasmlarga eʼtibor bersak uylar koʻpincha ikki oshyonali, bolxona va darvozaxonali qilib qurilganligini koʻrishimiz mumkin. Yogʻoch kamchilroq joylarda baʼzi xonalar gumbaz va toqlar bilan yopilgan. Ayvon va balkonlar (shoxnishinlar) keng qoʻllanilgan. Bogʻli hovli ichida hovuz va favvoralar boʻlgan. Bu jihatlar qasr meʼmorchiligida koʻproq oʻz ifodasini topgan. Ammo bu rasmlarda koʻproq qasrlar aks ettirilganligini ham unutmaslik kerak. Qasrlardan mashhurlari sifatida Samarqand arkidagi Koʻk saroy, Shahrizabzdagi Oq saroy, Hirotdagi Bogʻi Sharq, Mavrdagi Shoh saroylarini misol keltirish mumkin.[3] 1365-yildan eʼtiboran Amir Temur Keshning mudofaa imkoniyatlarini oshirish maqsadida mustahkam devor va imoratlar barpo etishga kirishgan. G.A.Pugachenkovaning yozishicha, Amir Temur 1378-yili Kesh qoʻrgʻonini devor bilan oʻrash rejasini tuzadi va uni amalga oshiradi. Devorning eni 8-9 metr, balandligi esa 11-12 metrni tashkil qiladi. Devor tuproq toʻkilib, ustiga suv quyilib pishitilgan va paxsa tariqasida koʻtarilgan. Devorning har 50 metrda burglar qad rostlagan. Devorning tashqi tomonida chox qazib suv toʻldirilgan holda saqlangan.[4] V.V. Bartold: «Temur dastavval Qashqadaryo vodiysidagi Shaxrisabz va Qarshida istehkomlar qurdiradi» – deb taʼkidlaydi. Shularning ichida ancha-muncha saqlanib qolgani va maʼlum darajada oʻrganilgani —bu Shahrizabzdagi Oq saroy hisoblanadi. Amir Temur oʻz hukmronligini mustahkamlashda meʼmorchilikni siyosiy vosita sifatida samarali qoʻllagan. Kesh shahridagi Oqsaroy buning yaqqol misolidir. Saroyning ulkan hajmi va oʻziga xos nafis bezaklari Temur davlatining qudratini namoyish etishga qaratilgan.[2] Uni onasi Nekuzbib sharafiga 1404-yili Shahrizabzda qurdirgan. Oqsaroy haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagilarni yozgan: “Amir Temur ishga yaroqli boʻlgan urganchliklarning hammasini Movarounnahrga koʻchirish uchun buyruq berdi. Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurishdi. Hozir u Oq saroy nomi bilan mashhurdir”. Ispan elchisi Klavixo Oqsaroyning goʻzalligini ehtiros bilan taʼriflagan; “Bu bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan boʻlib, u yerda saroyning shunchalik boʻlinma va oromgohlarini koʻrsatadiki, ular haqida juda uzoq soʻzlash mumkin. Saroy ziynatlari





oltindan va boshqa ranglardan hayratomuz uslubda ishlangan". Oqsaroy 20 yil davomida qurilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, saroy ichidagi xonalar ulkan hovli atrofida joylashgan. Ichki tomonida haram va Amir Temur xonasi bo'lgan. Ushbu saroyning eng noyob xususiyati shuki, saroy ichida tepalikka marmardan haykal qurilgan bo'lib, unga Taxta Qoracha dovonidan keltirilgan quvurlar orqali suv oqib kelgan. Saroy peshtoqlaridagi yozuvga ko'ra, uning me'mori Abdurazzoq ustasi va naqqosh Muhammad Yusuf bo'lgan.[5]Mazkur saroy Shahrisabzning arki hisoblangan. Saroy qurilishi 1380-yil boshlangan bo'lib, Ispaniya qiroli Karl III ning Amir Temur saroyidagi elchisi R.G.Klavixo ma'lumotiga ko'ra,1404-yilda ham ba'zi pardoiz ishlari tugallanmagan edi. Temuriylar me'morchiligining noyob durdonasi bo'lgan Oq saroy qasri bugungi kunda ham saqlanib qolgan. O'z davrida umumiy balandligi 70 metrga yaqin bo'lgan Oqsaroy binosining hozirgi kunda saqlanib qolgan qoldig'i 38m. Temuriylar davri me'morchiligi yorqin namunalaridan yana biri Dorut Tilovat (Qur'on o'qiladigan, tilovat qilinadigan joy) — Shahrisabz markazida Dorus-saodat majmuasi g'arbida temuriylar xonadoniga mansub qadimiy inshootlar — Shamsuddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Sayyidon va shu yerdagi eski madrasa o'rnida barpo etilgan Ko'k gumbaz masjididan iborat majmua hisoblanadi. Shahrisabz qadimiyati bilan shug'ullangan olim G.A.Pugachenkova ta'kidlaganidekku.^na obpdalar majmuasi mavjud bo'lib, ular bir vaqtlardagi Dor-ut-tilovat deb nom olgan ulug'vor Madrasa qoldiqlaridan iboratdir. Dor-ut-tilovat (Tafakkur uyi, mushohadaxona) Amir Temur me'morchilik obidasi hisoblanadi. Bu me'morchilik majmuasining vujudga kelishi «Temurning birinchi murabbiysi» Shayx Shamsiddin Kulol nomi bilan bog'liqdir. Shayx Shamsiddin Kulol O'rta Osiyo so'fiylari orasida ulug' martaba egallaydi, u vaqtida Bahouddin Naqshbandiyga xam ustozlik qilgan edi.[8] Dorut Tilovat majmuasining hozirgi ko'rinishi kvadratni eslatadi va uning umumiy maydoni 500 m² ni tashkil etadi. Mazkur hudud shahar yuzasidan salkam 2.25 metr balandlikda joy olgan. Ushbu majmua tarkibida Shamsuddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Sayidon maqbarasi va Ko'k gumbaz jom'e masjidi joylashgan.[6]Majmua tarkibidagi inshootlarning ayrimlari Shohi zinda inshootlariga o'xshab ketadi. Shamsuddin Kulol maqbarasi majmuaning eng qadimiy inshooti hisoblanadi. Maqbara qurilishi Amir Temurning farmoni bilan 1373-yilda boshlangan. Qurilish ishlari 1374-yilda nihoyalangan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, bu yerda Shamsuddin Kulol qabristoni va Amirzoda Umarshayx Mirzoning qabri ham mavjud bo'lgan. Bu qabr Shamsuddin kulol va Amir Tarog'oy maqbarasining qibla tomonida joylashgan. 1376-yilda Amir Temurning katta o'g'li Mirzo Jahongir ham shu yerga dafn etilgan. Amir Temur har safar Kesh shahriga tashrif buyurganida, piri Shamsuddin Kulol, otasi Amir Tarog'oy, o'g'li va boshqa qarindoshlari qabrini ziyorat qilgan[3]. Dorut Tilovat majmuasining janubiy qismida Gumbazi sayidon maqbarasi joylashgan. Maqbara devorlari pishiq g'ishtdan 1437—1438-yillar oralig'ida qurilgan. Maqbara qurilishi Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan.Shamsuddin kulol va Gumbazi Sayidon maqbaralarining qarama-qarshi tomonida Ko'k gumbaz nomli baland jom'e masjid joylashgan.U 1434-1436-yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan.Otasi Shohruh Mirzo sharafiga Ulug'bek



tomonidan qurdirilgan bu masjidning asosiy qismi — maqsurasining peshtoqini Ulug'bek shu davrda mavjud bo'lgan temuriylar maqbarasi — Gumbazi Sayidonga qarab qurdirgan.[7] Maqsura vazifasini o'tagan bu inshootning ikki yonida to'rt qatorli to'rtburchakli ustunlar ko'tarib turgan katta ayvonlar barpo ettirilgan. Masjidning bu qismi Tillakori madrasasining masjid qismiga anchagina o'xshab ketadi[8] Endi Dor us-siyodat me'moriy majmuasi haqida so'z yuritamiz. Mazkur majmua o'rta asrlarda shahardagi boshqa bir mashhur majmua „Dor ut-tilovat“ sari olib boradigan yo'l vazifasini ham o'tagan. Tarixda mazkur ikki majmua siyosiy va diniy qatlam vakillari uchun umumiy qabriston vazifasini o'tagan. Me'moriy majmua bir qator tarixiy yodgorliklardan tarkib topgan bo'lib, ularning orasida eng asosiysi bu Jahongir maqbarasidir[2]. Uzoq yillar davomida maqbura o'z holatini yaxshi saqlashga muvaffaq bo'lgan. Run Gonzale de Klavixo ham bu yerga tashrif buyurgan vaqti mazkur majmua haqida bir qator fikrlarini yozib o'tgan. Majmua hududida Amir Temurga qarashli toshsag'ana dahmasi ham bugunga qadar saqlanib qolingan. Umarshayx Mirzoning qabri ham ayni shu yerda joylashgan, degan fikrlar mavjud. Sababi, mazkur hududdan uncha uzoq bo'lmagan masofada Umarshayxning o'g'li Said Ahmad Mirzo qabr sag'anasi topilgan. Bundan shu ayon bo'ladiki mazkur majmua o'z vaqtida Amir Temur va undan kelib chiqqan barlos qabilasi vakillarining xilxonasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Sharafuddin Ali Yazdiyning qalamiga mansub „Zafarnoma“ asarida yozilishicha, Amir Temur Shahrisabzda maxsus bino qurdirgan, unda o'z o'g'li Amirzoda Jahongir va boshqa amaldorlar, va ularning avlodlarining daxmalari qo'yilsin, deb farmon bergan. Dor us-siyodat tarhi Yassaviy majmuasi bilan juda o'xshash bo'lib, asosiy g'arbiy qismidagi ravog'i 20 metr kenglikka ega bo'lgan, kirish yo'li xudoyixona (yoki saroyga), undan qoq o'rtadagi Amir Temurga mo'ljallangan yer osti sag'anasi joylashgan binoga olib borgan. Xonaning muyulishidagi uzun yo'lakdan yon xonalarga o'tish imkoniyati mavjud bo'lgan. Bu xonalar o'rnida o'sha vaqtlarda oshxona, masjid, kutubxona, mehmonlar turadigan xujralar bo'lgan deb taxmin qilinadi[3] XV asrning birinchi choragida Shahrisabzga kelgan Xitoy elchilari Dor us-siyodatni „Ajoyib ibodatxona“ deb ta'riflaydilar. Xitoyliklarning so'zlariga qaraganda, „Shahrisabz ibodatxonasining eshik va derazalari oltin, turli randor shisha va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan“. [7] Oqsaroy, Dorut Tilovat va Dorus-Siyodat kabi inshootlar Amir Temur va uning avlodlari tomonidan faqat ichki foydalanish uchun emas, balki xalqaro miqyosda davlat obro'sini ko'rsatish uchun ham yaratilgan.

Xulosa

Temuriylar davri me'morchiligi, xususan, Kesh shahri Markaziy Osiyoda shaharsozlik va arxitektura rivojining oltin davrini ifodalaydi. Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish loyihalari mamlakat siyosiy barqarorligini, iqtisodiy qudratini va madaniy jihatdan yuksalishini ko'rsatadi. Bu davr me'moriy obidalari nafaqat san'at va madaniyatning muhim yutuqlarini aks ettirgan, balki jamiyatning ijtimoiy va diniy e'tiqodlarini ham o'zida mujassamlashtirgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalangan adabiyotlar

- 1.O.Bo‘riyev „ Temuriylar davri yozma manbalarida markaziy osiyo tarixiy geografiyasi” T-2017 178-bet
- 2.Sharafiddin Ali Yazdiy „Zafarnoma” 97-b
- 3.A.Ahmedov „O‘rta Osiyo me‘morchiligi tarixi” T-1995 48-b
- 4.Пугаченкова Г.А. Термез, Шахрисабз, Хива. М., 1976. С-60
- 5.N.Norqulov „Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar” Urganch-1996 23-b
- 6.„Dorut Tilovat memorial majmuasi” meros.uz
- 7.A.S.Sagdullayev „Qadimgi Kesh Shahrisabz tarixidan lavhalar” T-1998 94-b
- 8.P.Ravshanov „ Qashqadaryo tarixi “ T-1995 623-b